



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qutuvchisi
_____ *ning*
20__ - 20__ - o'quv yiliga adabiyot fanidan
7 - sinflar uchun I chorak

DARS
ISHLANMALARI

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 7-sinf adabiyot I chorak
taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
I chorak				
1.	Kirish: Badiiy tahlil asoslari	1		
2.	Normurod Norqobilov: “Oqbo‘yin” hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
3.	Normurod Norqobilov: “Oqbo‘yin” hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
4.	Normurod Norqobilov: “Oqbo‘yin” hikoyasi: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Syujet	1		
5.	Zulfiya: “Sog‘inib”. Asqad Muxtor: “Oliy butunlik”. Tahlil va solishtirish. Zidlantirish	1		
6.	Zulfiya va Asqad Muxtor lirikasini solishtirish	1		
7.	Ernest Seton-Tompson: «Lobo» hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
8.	Ernest Seton-Tompson: «Lobo» hikoyasi: Asar matni bilan ishlash	1		
9.	Ernest Seton-Tompson: «Lobo» hikoyasi: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Peyzaj	1		
10.	Ernest Seton-Tompson: «Lobo» hikoyasi: Loyiha	1		
11.	Nazorat ishi-1	1		
12.	Ernest Heminguey: “Chol va dengiz” qissasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1		
13.	Ernest Heminguey: «Chol va dengiz» qissasi: Asar matni bilan ishlash	1		
14.	Ernest Heminguey: “Chol va dengiz” qissasi: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Ramz	1		
15.	Fanlararo aloqa: Adabiyot va tabiatshunoslik	1		
16.	Takrorlash	1		
17.	Nazorat ishi-2	1		
18.	Mustaqil o‘qilgan asar yuzasidan suhbat	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Kirish. Badiiy tahlil asoslari.

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarga asarni o'qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g'oyasini (yoki g'oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o'rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so'zlari, xatti-harakatlariga) e'tibor berish, o'quvchilarda mavzu bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg'ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o'qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o'rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko'nikmalarini boyitish..

O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

Axborot bilan ishlash kompetensiyasi:

mediamanbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saralash, saqlash, va ulardan foydalana olish.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda o'z-o'zini ma'naviy, intellektual rivojlantirish, mustaqil o'qib-o'rganish.

Darsning metodi: og'zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.


III. Yangi mavzu bayoni:

Badiiy matnning muhim xususiyati – uning qator tagma'nolarga egaligi. Muallif odatda eng muhim g'oyalari, ahamiyatga molik fikrlarini ochiq-oydin aytmaydi. Biz asarning “yozilgan” qismi – asar matni, undagi obrazlar tasviri, voqealar bayoni, muallif qo'llagan badiiy tasvir vositalarini tahlil qilish orqali uning “yozilmagan” qismlarini kashf qilishni, undan xulosalar chiqarishni o'rganamiz. Badiiy matnni tushunish uchun dastlab uning sarlavhasigae'tibor beramiz. Bu savolga javob topish uchun, avvalo, “hovli” va “daraxt” so'zlariga e'tibor beramiz. Odatda hovli biz tug'ilib o'sgan joy, kichik vatan sifatida

tasavvur uygʻotadi. Daraxt esa uzoq umr koʻradi, tabiatning barcha injiqliklariga qaramay, qaytadan kurtak ochib meva beradi. Daraxtning shu xususiyatlaridan kelib chiqib, mualliflar koʻp holatlarda undan badiiy adabiyotda sabr-matonat, oila boshligʻi, millat, jamiyatga oid gʻoyalar tasvirida foydalanadilar, ildizini ota-onaga, yashnab turgan yaproqlarini farzandlarga oʻxshatadilar. Demak, badiiy asarda obraz sifatida ishlatilgan obyektning matndagi vazifasini tushunish uchun uning oʻziga xos xususiyatlariga ham eʼtibor berishimiz lozim. Asarni oʻqiy boshlar ekanmiz, uning dastlabki satrlarigadiqqatimizni qaratamiz. Asar turlicha boshlanishi mumkin: tabiat tasviri, joy tasviri, obraz tasviri, biror muammoli vaziyat bayoni va hokazo. Koʻp holatlarda asar voqealarining keyingi rivoji va muallif aytmoqchi boʻlgan gʻoya (yoki gʻoyalar) mana shu ilk tasvirlarda maʼlum darajada aks etgan boʻladi. Bu gʻoyalar mazmunini anglashda matndagi muhim (“kalit”) soʻzlar ham asosiy oʻrinni egallaydi.

HOVLIDAGI DARAXT

Hovlimizdan oqib oʻtadigan ariq labidagi bu daraxt qishlogʻimizda yagona hisoblanardi. Daraxtning boʻyi uyimiz tomi bilan teng edi. U eniga uncha tarvaqaylab ketmagan, xuddi butalganday qaddi tik, tanasi va shoxlari esa rahmatli bobomning hassasiday sip-silliq edi. Daraxtning kishini hayratga soladigan bir jihati bor edi. U yilda ikki marta – bahor bilan kuz boshlarida gullar, biroq meva tugmas edi. Bahorda daraxtning bikarang gʻuj-gʻuj gʻunchalari hovlimizga oʻzgacha fayz baxsh etar, uning shoxidan qushlar arimas edi. Kuzning boshlarida gullashi chindan ham hayratomuz edi, odamlar bunday paytda uning atrofida oʻralashib: “Nahotki, daraxt ham kuzda gullasa”, – deya koʻzlariga ishonmay, qoʻllari bilan nafis gʻunchalarni ushlab-ushlab koʻrishar edi. Yana shunisi qiziqki, hech kim, hatto otam ham uning qanaqa daraxt ekanini bilmas edi. Biz – bolalar uning ensiz kichik barglariga, tekis shoxlariga qarab gilosga oʻxshatardik va oʻzimizcha uni gilos deb atardik. Aslida gilos emasligini bilardik... Daraxt otamga bobomeros yodgorlik hisoblanar, shu sababli uni nihoyatda avaylardi. Va bizdan ham shuni qattiq talab qilardi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Siz “Hovlidagi daraxt” asaridan qanday xulosa chiqardingiz? Hikoyadagi daraxt kim yoki nimaning ramzi? Muallif bu orqali qanday gʻoyani ilgari surmoqda?

V. Darsni yakunlash: oʻquvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, ragʻbatlantirish.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: yangi mavzuni toʻliq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

OʻIBDOʻ: _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Normurod Norqobilov: “Oqbo‘yin” hikoyasi: Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga asarni o‘qish davomida obrazlarga xos xususiyatlarni tahlil qilish orqali ularning badiiy asar g‘oyasini (yoki g‘oyalarini) ochib berishdagi, voqealar rivojidadagi o‘rnini topish, obrazlarga berilgan tavsiflarga (masalan, ularning tashqi qiyofasi, kiyinishi, nutqi – gap-so‘zlari, xatti-harakatlariga) e’tibor berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish..

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiya elementlari:

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi:

doimiy ravishda o‘z-o‘zini ma’naviy, intellektual rivojlantirish, mustaqil o‘qib-o‘rganish.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

oila, maktab, mahallada bo‘layotgan jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish.

aniq reja tuza olish, kundalik faoliyatda turli formula, chizmalarni o‘qiy olish.

Darsning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism:

a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash:

a) Savol – javob o‘tqazish.

b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Yozuvchi va madaniyat xodimi Normurod Norqobilov 1953-yili Qashqadaryo viloyatida tug‘ilgan. Adibning eslashicha, bolalik davrida “kitob topish qiyin bo‘lgan, topilganini ham birpasda o‘qib tashlashgan”. Uning



onasi har oqshom qorachiroq nurida ertak aytib berar, ertak boshlanishi bilan “uy ichi kengayib, yorishib ketganday bo‘lardi”. Onasining ertaklari ta’sirida bo‘lajak yozuvchida adabiyotga havas uyg‘ondi. Maktabdan keyin bir muddat turli joylarda ishlagach, Toshkent davlat universitetiga (hozirgi O‘zbekiston milliy universiteti) o‘qishga kirdi. Universitetni bitirib, avval gazetada, so‘ng televideniya faoliyat yuritdi.

Televideniye uchun ko‘rsatuvlar tayyorlash jarayonida O‘zbekistonning ko‘plab joylariga sayohat qildi, hayvonot dunyosini o‘rgandi. Bu bilimlar keyin chalik hayvonlarga bag‘ishlangan asarlar yozilishiga turtki berdi. Normurod Norqobilov ko‘p yillik xizmatlari uchun “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni va “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

It – inson tomonidan qo‘lga o‘rgatilgan ilk hayvonlardan biri. Buning sababi nimada bo‘lishi mumkin? Itlarning inson hayotidagi ahamiyati nimada?

V. Darsni yakunlash: o‘quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. veb-sayiti orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

38 listdan iborat adabiyot fanidan 7-sinf I chorak konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**

